

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Salomova Sarvinoz Salimovna

Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

salomovass87@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohalaridan biri hisoblangan neft va gaz sanoati, undagi muammolar, yangiliklar, ishlab chiqarish tendensiyalari, sohadagi xorijiy va mahalliy ilmiy – tadqiqot ishlarining o'zni va unga ajratilayotgan mablag'lar dinamikasi, resurs zaxiralari va prognozi kabilar yoritilgan. Jumladan mamlakat iqtisodiyotida neft va gaz tarmog'ining roli, iqtisodiy salohiyati va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish jarayoni tahlili amalga oshirilgan. Xususan neft va gaz sanoatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning dinamikasi, neft va gaz zaxiralari va ularning prognoz ko'rsatkichlari, neft-gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari yillar bo'yicha keltirilgan.

Kalit so'zlar: *neft va gaz sanoati, tendensiyalar, resurs zaxiralari, iqtisodiy salohiyat, samaradorlik, xorijiy investitsiyalar.*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Саломова Сарвиноз Салимовна

Доцент Ташкентского государственного технического университета

salomovass87@gmail.com

Аннотация: В статье описывается нефтегазовая отрасль, которая считается одной из приоритетных сфер экономики страны, ее проблемы, новости, тенденции производства, роль зарубежных и отечественных научно-исследовательских работ в отрасли, динамика средств, направляемых на это, запасы ресурсов и прогнозы. В частности, был проведен анализ роли нефтегазовой отрасли в экономике страны, экономического потенциала и процесса повышения эффективности использования ресурсов. В частности, представлена динамика прямых иностранных инвестиций в нефтегазовую отрасль, запасы нефти и газа и их прогнозные показатели, экономические показатели финансовых вложений в нефтегазовую отрасль по годам.

Ключевые слова: нефтегазовая отрасль, тенденции, ресурсные запасы, экономический потенциал, эффективность, иностранные инвестиции.

INCREASING THE EFFICIENCY OF OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN

Salomova Sarvinoz Salimovna

Associate Professor, Tashkent State Technical University

salomovass87@gmail.com

Annotation: The article describes the oil and gas industry, which is considered one of the priority areas of the country's economy, its problems, news, production trends, the role of foreign and local scientific and research work in the field, the dynamics of funds allocated to it, resource reserves and forecasts. In particular, the analysis of the role of the oil and gas industry in the economy of the country, the economic potential and the process of increasing the efficiency of resource use was carried out. In particular, the dynamics of foreign direct investments in the oil and gas industry, oil and gas reserves and their forecast indicators, economic indicators of financial investments in the oil and gas industry are presented by year.

Key words: *oil and gas industry, trends, resource reserves, economic potential, efficiency, foreign investments.*

KIRISH

Jahonning barcha mamlakatlarida doimiy iste'mol vositasiga aylangan neft-gaz sanoati mahsulotlariga bo'lgan talab tobora ortib borayotgan bir sharoitda ushbu talabni qondirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy samardorlikni oshirish borasidagi muammolarni bartaraf etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. «2022-yilda Energy Insights tomonidan berilgan prognozga ko'ra, 2035-yildan so'ng Osiyotinch okeani va boshqa mintaqa mamlakatlarida yangi ishonchli neft manbalarini qidirishga to'g'ri keladi». Neft-gaz sohasi va tarmog'i jadal sur'atlarda rivojlanayotgani, ushbu sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni talab etmoqda.

Neft va gaz sanoatining mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi birinchidan mavjud resurslardan samarali foydalanish, ikkinchidan esa ishlab chiqarishni iqtisodiy jihatdan raqobatbardoshligini ta'minlash vazifasini keltirib chiqardi. Jahon bankining 2020-yildagi ilmiy tadqiqotlariga muvofiq, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotdagi ulush 60 foizga yetishi, aynan innovatsion yangiliklarini sanoat tarmoqlari keng qo'llash va samarali foydalanish hisobiga yaratilmoqda [7].

ADABIYOTLAR TAHLILI

R.Auiti nazariyasini amerikalik olim J.Saks «tabiiy resurslarning mamlakat iqtisodiyoti va tinchligi uchun foydasiga qaraganda, resurslar uchun ayovsiz siyosiy o'yinlar olib boruvchi attraktor funksiyasini bajaradi» - degan g'oyani va qarashlarini XIX asrning 80-yillarida Birlashgan Arab Amirligi, Yaponiya, Xitoy singari mamlakatlarni misol keltirgan holda asoslagan. Mamlakatning tabiiy zaxiralarga boyligi har doim ham mamlakatning ustunligi bo'la olmaydi.

Ingliz iqtisodchi olimi E.Reynert «Rivojlangan mamlakatlar qanday rivojlandi va qashshoqlar qashshoqligicha qolmoqda» nomli risolasida «yirik resurslarga ega bo'lgan mamlakatlarda ham qashshoqlikning aksariyati ishlab chiqarish resurslarning ishlab chiqarishdagi monopollashuviga asoslangan» deya ta'kidlagan.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada mavzu buyicha turli xorijiy adabiyotlar o'rganilgan. Amaliy tahlillarda rasmiy statistik ma'lumotlar hamda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafik, solishtirma tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Neft va gaz sanoati yurtimizning asosan Qashqadaryo viloyati, Buxoro-Xiva mintaqasi hududida salmoqli foydali qazilma boyliklarga to'yingan. Xususan, mamlakatimizda eng ko'p qazib olish maydoni sifatida Ko'kdumaloq koni va undagi 300dan ortiq istiqbolli quduqlar tanilgan. Odatda sanoat korxonalarining mahsulotlarini bozorga nisbatan ishlab chiqarish, oldin uni xomashyo resurslarini ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Hozirgi kunga kelib neft va gaz sanoati resurslaridan foydalanish yillar davomida takomillashib bormoqda, zamonaviy texnologiyalar barcha mavjud soha va tarmoqdagi ishlab chiqaruvchilarga imkoniyatlarni kengaytiradi. Ishlab chiqarish faoliyatini takomillshatirish-mahsulot turlarini ko'paytirish savdo koridorlarini kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ijtimoiy sog'lom muhitni va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi qarashlar qamrovidan iborat.

Sanoat neft va gaz mahsulotlaridan unumli foydalanish mamlakatning investitsion konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida mahsulotlarni innovatsion texnologiyalarga asoslangan va qoldiq resurslardan majmuaviy foydalanishni ta'minlash asosida samaradorlikni muqobil o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Sohadagi xorij tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarning dunyodagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqeini, avvalambor, ularning intellektual bilimlari asosidagi innovatsiyalar ta'minlamoqda. Xususan, jahonda

iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar dasturiy mahsulotlar tufayli ishlab chiqarishda o'sish sur'atlari turli baho ko'rsatkichlariga ko'ra, 10% dan 20% gacha bo'layotganligini ko'rsatmoqda [1].

Dunyoning rivojlangan va qator rivojlanayotgan mamlakatlari bu darajada tez rivojlanishiga qator ijtimoiy – iqtisodiy omillar sabab bo'lmoqda:

birinchidan, 1990-yillarning ohiri va 2000-yillarning boshidan global internet tarmog'ining rivojlanishi va uni iqtisodiy, moliyaviy, boshqaruv munosabatlarida keng qo'llanila boshlanishi;


ikkinchidan, dunyo mamlakatlari o'rtasida moliyaviy va iqtisodiy munosabatlarning kengayishi va ularning bir-biriga o'zaro bog'liqligi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;

uchinchidan, aholi sonining global darajada ortib borishi, uning yillik o'sishi sur'ati 1,3 foiz yoki 80 mln kishini tashkil yetadi. Dunyo aholisi 1800-yilda 1 milliarddan 2020-yilga kelib 7,5 milliardga yetdi. Aholi sonining o'sishi doimiy o'sib borishi natijasida 2030-yilda 8,4 milliardga, 2050-yilga borib esa 9,4 milliard bo'lishi kutilmoqda. E'tiborli jihati shundaki, aholi tez sur'atlar bilan o'sishi, hayot darajasi past mamlakatlar, aholi sonining past sur'atlari esa hayot darajasi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda [5];

to'rtinchidan, mamlakatlarda cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish orqali aholining o'sib borayotgan ehtiyojini samarali ta'minlash, mulkdorlar sinfini va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, mahsulotlar va xizmatlarning xalqaro darajada raqobatbardoshligiga erishish zarurligi kabi omillar shular jumlasidandir [5].

O'zbekistonda so'ngi yillarda gaz qazib olish sezilarli darajada oshdi, ammo ularning qator yechimga muhtoj jihatlari mavjud. Mavjud muammolarning barchasi yechimga ega, bir jihatdan ularning samarali yechim topishi uchun vaqt omilining ham o'rni bor. Zamonaviy texnologik va ekologik me'zonlarga javob bermaydigan eskirgan texnologiyalarni qo'llashni bevosita ta'qiqlash, neft iste'molining yaqin yillar ichida eskirgan o'zbek neftni qayta ishlash zavodlarining kam utilizatsiya qilinganligi sababli mahalliy yoqilg'i ishlab chiqarish hajmining kamayishi hisobiga o'sishi, neftni qayta ishlashning marjasi sezilarli emasligi sababli, neftni qayta ishlovchi tarmoqning to'liq quvvatda ishlash darajasi kelgusi yillarda asta-sekin kamayib borishiga strategik rivojlantirish jihatidan qarab bo'lmaydi.

Zamonaviy neft va gaz korxonalarining «strategik rivojlangan avlodi»ni yaratish uchun avvalambor, noekologik bo'lsada, eskirgan texnologiyalardan va xomashyodan foydalanib turishga majburmiz. Mamlakatda gaz qazib olishning o'sishi 2031-yilgacha davom etishi kutilmoqda, ammo pastroq sur'atlarda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda neft mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi (mln.tonna/yiliga) [3]

Shu bilan birga, investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligining barqaror pasayishi kuzatildi, bu asosan sanoat korxonalarining asosiy mahsuloti rentabelligi pasayishi bilan bog'liq. Neft va gaz sanoati korxonalari orasidan 3 ta yirik "O'zneftgazqazibchiqarish" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zneftgazmahsulot" AJ singari tashkilotlarning investitsion salohiyati bo'yicha ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

"O'zneftgazqazibchiqarish" AJ faoliyatida moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari foizda kichik natijani ko'rsatsada, mablag'ga aylantirganda juda katta qiymatlarga aylanadi.

1-jadval

Neft-gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy investitsiyalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari. 2014-2021 yy. (foizda) [9]

№	Ko'rsatkichlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
1	Umumiy iqtisodiy samaradorlik ("O'zneftgazqazibchiqarish" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zneftmahsulot" AJ)	4,58	18,9	16,49	10,4	-13,42	14,4	10,6	11,3
2	"O'zneftgazqazibchiqarish" AJ	0,3	0,1	0,05	0,04	-0,76	-0,05	0,05	0,3
3	"O'ztransgaz" AJ	7,67	15,4	7,88	6,39	-4,02	12,9	8,01	9,78
4	"O'zneftmahsulot" AJ	-3,39	3,52	8,56	3,94	-8,64	1,66	2,55	3,12

Manba: <https://www.ung.uz/open-data/18/sub/42/2> "O'zbekneftgaz" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

"O'zbekneftgazqazibchiqarish" AJ 2014-yilda neft va gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy investitsiyalarning 0,3%i ulushida egallagan, 2015-yilda bu ko'rsatkich qisqarib 0,1%ni tashkil etgan. 2016-yilda bir oz investitsiyalarni oqimi sekinlashib

0,4% tashkil etgan ko'rsatkich 2017-yilga kelib 2 barobarga yuqorilashi natijasida tubdan ko'tarilgan. 2018-yillarda kammomad kuzatilgan bo'lsada, 2019-yilda 0,8% ko'rsatkichi 4 barobarga natijani yuqorilaganligini ko'rsatgan. 2020-yillarda kammomad kuzatilgan 3 barobarga qisqargan bo'lsada 2021-yilga kelib, 0,2% ko'tarildi. "O'ztransgaz" AJga kiritilgan moliyaviy investitsiyalarning foiz ko'rsatkichlari "O'zbekneftgazqazibchiqarish" AJ va "O'zneftmahsulot" AJga nisbatan ancha yuqori bo'lib, 2014-yilda 7,67% dan 2015-yilda qariyb 2 barobarga yuqorilab 15,35% ni ko'rsatgan, 2016-yilda esa 7,88%ga pastlagan, 2017-yilda 1,49%ga pastroq natijani ko'rsatgan. 2017-yilda esa harajatlar tarkibida keskin o'zgarishlar tufayli 4,02% ga kamomadga kirib, 2018-yilda ushbu ko'rsatkich keskin yaxshilanib 12,79% ga ko'tarilgan. 2019-yilda ko'rsatkich 1,6 barobarga pastlagan bo'lsada, pandemiya davri uchun bu iqtisodiy jihatdan ijobiy natija sanaladi. Neft va gaz sohasidagi tashish va xizmat ko'rsatish sohasi yuqoriligi tufayli oshgan. "O'zneftgazmahsulot" AJ ko'rsatkichlarida yillar davomidagi o'zgarishlar bir-biridan tubdan farq qiladi, jumladan, 2014-yilda 3,39% kamomad bo'lgan bo'lsa, 2015-yilda 3,52% bilan 2 barobarga yuqorilagan. Ushbu jarayon 2016-yilda ham kuzatilgan, 8,56%ga qadar o'sdi, 2017-yilda ko'rsatkich 8,56%dan 3,94% ga pastlab, 2018-yilda 8,64% kamomad bilan natija ko'rsatdi. 2019-yilda 2021-yilga qaraganda salmoqli natija bilan 3,2 barobarga yuqoriladi. Umumiy iqtisodiy samaradorlik ("O'zneftgazqazibchiqarish" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zneftmahsulot" AJ) sarhisobidan 2014-yilda neft va gaz sanoatiga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar 4,58%ni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2015-yilda 4 barobarga yuqorilab 18,9% natijani ko'rsatgan. 2016-yilda 2015-yilga nisbatan 2,5%, 2017-yilda 2016-yilga nisbatan 6,09% pastroq natija kuzatilgan. 2018-yilda tarmoq korxonalari umumiy hisobda 13,42% kamomad bo'lgan, 2019-yilda bu ko'rsatkich 2 barobarga oshib 14,4%ni tashkil etgan va kamomaddan chiqishga muvvafaq bo'lgan. 2020-yilda tarmoqqa kiritilgan moliyaviy investitsiya 10,6%ni tashkil etgan, 2019-yilga nisbatan qariyb 4,1% pastroq natijani namoyon etgan bo'lsada, pandemiya davrini hisobga olganda salmoqli natija sanaladi. 2021-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 11,3 % ni tashkil etmoqda.

XULOSA

So'nggi yillarda mamlakatimizda sanoat korxonalari tomonidan taklif etilayotgan uslubiyotga asoslangan holda boshqaruv bo'yicha hisobotlarini shakllantirish orqali nafaqat korxonalar, balki, mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanganlik darajasini baholash, shuningdek, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish uchun yetarli darajadagi ma'lumotlarni jamlash imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mamlakatimizda innovatsion rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mitin V. Sem opredeleniy sifrovoy ekonomiki / CRN. 2017.
2. Blaug M. Ekonomicheskaya teoriya ispolzovaniya prostranstva i klassicheskaya teoriya razmesheniya proizvodstva. Arxivnaya kopiya ot 21 yanvarya 2022 na Wayback Machine // Ekonomicheskaya misl v retrospektive. — M.: Delo, 1994. — S. 568-585. — ISBN 5-86461-151-4.
3. Taraqqiyot strategiyasi Markazi. “Taraqqiyot 2018”. – Toshkent 2018 y., 14 b.
4. <https://www.cm.ru/news/detail.php?ID-116780> (data obrasheniya 19.09.2017).
5. www.prb.org. 2019 World Population Facctsheet. Population Reference Bureau.
6. <https://ruscions.info/faq/cifrovaya-ekonomika-v-rossii>.
7. <http://www.nasscom.in/indian-itbpo-industry> Hindistonning AKT bo'yicha agentligi veb-sayti.
8. <https://project.adliya.uz/uz/site/authority?id=5973> O'zbekiston davlat geologiya va mineral resurslari qo'mitasi ma'lumotlari.
9. <https://www.ung.uz/open-data/18/sub/42/2>.